

ERKIN IQTISODIY ZONALARNING MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTIDAGI O‘RNI

Nosirov Xusanboy Baxodir o‘g‘li

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti

“Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrası o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Respublikamizga xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish, ularni rivojlantirishning moliyaviy masalalarini o‘rganish va O‘zbekistonda erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini rivojlantirish holati tahlilini o‘rganib vujudga kelgan muammolar hamda ularni hal etish yo‘llarini o‘ganish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanib kelmoqda. Ushbu maqolada respublikamizga xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etishning afzal tomonlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: investitsiya, erkin iqtisodiy zona, mehnat taqsimoti, eksport.

Respublikamizga xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish, ularni rivojlantirishning moliyaviy masalalarini o‘rganish va O‘zbekistonda erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini rivojlantirish holati tahlilini o‘rganib vujudga kelgan muammolar hamda ularni hal etish yo‘llarini o‘ganish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanib kelmoqda. Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘shishiga erishishning muhim yo‘nalishlaridan biri barcha ichki manbalardan unumli foydalanish hamda xorijiy investitsiyalarni faol jalb etishdir. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, erkin iqtisodiy hududlar maxsus xo‘jalik tuzilmalar sifatida jahonning ko‘plab mamlakatlari iqtisodiyotida muhim o‘rin egallaydi. Ko‘pchilik davlatlar xorijiy kapitalni jalb qilsih va iqtisodiy faoliyatning ayrim turlarini rivojlantirish maqsadida bir necha asrlar davomida o‘z hududlarining bir qismida imtiyozli shart-sharoitlarni yaratib kelganlar. Hozirda dunyoning 200 ta mamlakatida 5500 dan ortiq erkin iqtisodiy hududlar mavjud bo‘lib, jahon savdo aylanmasinig 40-45 foizi erkin iqtisodiy hududlarga to‘g‘ri kelmoqda va ularda 70 millionga yaqin odam o‘z mehnat faoliyatini yuritmoqdalar. Xalqaro amaliyotga muvofiq, erkin iqtisodiy hududlar xalqaro mehnat taqsimotining keng tarqalgan shakli bo‘lib, rivojlanishi sust bo‘lgan hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishda, ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirishda, ushbu hududlarda mamlakatlar o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik munosabatlarini rivojlanishida va mamlakat iqtisodiyotiga keng ko‘lamda xorijiy investitsiyalarni jalb etilishida o‘z ijobiy

samarasini bermoqda. Mamlakatimizda yuqori texnologiyali yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, hududlarni raqobatdosh va eksportga yo'naltirilgan zamonaviy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o'zlashtirishga yanada faol jalb qilish, ishlab chiqarish, muhandislik, kommunikatsiya, yo'l transport, ijtimoiy infratuzilma va logistika xizmatlarini jadal rivojlantirishni ta'minlash uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni kengaytirishning eng muhim omili sifatida erkin iqtisodiy hududlar va kichik sanoat zonalarni izchil rivojlantirish borasida qulay shart-sharoitlar yaratish dolzarb hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev takidlaganlaridek: "Biz iqtisodiyotimizga sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo'yicha investitsiya loyihalarini puxta shakllantira olsak, bu masalada ijobiy natijaga erishish mumkin. Bu borada erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarda biznes subyektlarini joylashtirish, ularga imtiyoz va preferensiyalar berishni tashkiliy va huquqiy jihatdan tartibga solish lozim".

O'zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy hududlar va kichik sanoat hududlar tashkil etish, ular faoliyatini kengaytirish, milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish va berilgan imtiyozlardan samarali foydalanish yo'llarini ishlab chiqish borasida muammolarning mavjudligi, ularni hal etishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishning O'zbekiston iqtisodiyotining jahon xo'jaligi tizimiga integratsiyalashuvi sharoitida mamlakatimizda eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy rivojlanish siyosatini amalga oshirish va eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarib xorijga eksport qilish va shuningdek import o'rnini bosuvchi yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni joriy qilishda erkin iqtisodiy zonalardan foydalanish, shuningdek, mamlakatimizda "ochiq eshiklar siyosatini" amalga oshirish hamda xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilish borasida rivojlangan davlatlarning, ayniqsa, jahon xo'jaligida tezkor sur'atlarda rivojlangan mamlakatlarning, jumladan, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Turkiya, Xitoy kabi mamlakatlarning tashqi savdo-sotiq siyosati tajribalaridan unumli foydalanish milliy iqtisodiyotimizning taraqqiyotiga ijobiy samara beradi.

Shunga ko'ra, milliy iqtisodiyotni shakllantirishda tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish orqali mamlakatning tashqi savdo-sotiq jarayonini va eksport salohiyatini yuksaltirish masalasi, mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos jihatlarni hisobga olishni, ayniqsa, jahon iqtisodiyoti amaliyotida to'plangan tajribalar va xalqaro qonun-qoidalar asosida mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilish borasida va ularni tartibga solish usullarini yanada takomillashtirish zarurligini talab etadi. Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishda va undagi faoliyatlarni samarali olib borishda xorij mamlakatlarining tajribalaridan va ularning usullaridan unumli foydalanish hozirgi kunning muhim masalalaridan biri

hisoblanadi. Mamlakatimizda jahon andozasiga mos ravishda yuqori texnologiyalar asosida sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish tizimini bugungi kun darajasiga ko'tarish to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi: "Iqtisodiyotni, avvalo, ishlab chiqarish sohalarini oqilona tashkil qilish, ularga yuksak texnologiyalarni joriy etish, shu asosda zamonaviy korxonalar barpoetib, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish, bir so'z bilan aytganda, O'zbekistonda jahon andozalariga mos, xalqaro bozordagi raqobatga bardosh bera oladigan tizimni yaratish bizdan, shubhasiz, katta vaqt, mehnat va shijoatni talab qiladi".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Gazeta.uz va Kun.uz Internet saytlaridan olindi.
2. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. "Fan", Vahobov A.V., Malikov T.S.
3. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi. 2016-yil 20-yanvar. O'RQ-400 son.
4. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktabrdagi "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonuni.